



FATVO VA FATVO TO'PAMLARNING YUZAGA KELISH VA SHAKLLANISH TARIXI

D.Nazimjonova

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10959979>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 02-April 2024 yil
Ma'qullandi: 05- April 2024 yil
Nashr qilindi: 11- April 2024 yil

KEYWORDS

Sendan o'ljalar haqida so'rarlar. Sen: "O'ljalar Alloh va Rasulinikidir. Bas, Allohga taqvo qilinglar va o'z oralarigizni isloh etinglar. Agar mo'min bo'lsangiz,

ABSTRACT

Ushbu maqolada fatvolarning bugungi kundagi va tarixiy ahamiyati, uning shakllanish tarixi, payg'ambar, sahobalar va tobeinlar davrida chiqarilgan fatvolarning o'ziga xos va farqli jihatlari bayon qilindi. Turli davrlarda fatvo chiqarishga sabab bo'lgan omillar, sahobalar, tobeinlar davrida muftiylik va mujtahidlik darajasiga yetgan kishilar haqida ma'lumot berildi. Fatvolarning tadrijiy rivojlanish tarixi yoritildi.

Islomda fatvoning o'рни va ta'siri muhim bo'lishi bilan birga o'ta mas'uliyatli vazifa ham hisoblanadi, chunki fatvoda Allohning hukmlarini bayon qilish maqsad qilinish, unda halol-harom, savob-gunoh, jannat-do'zax orasidagi amallar ko'rsatib beriladi. Shu nuqtai nazardan, musulmonlarning turmush tarzida yuzaga kelib turgan turli masalalarning javobini berish farzi kifoya sanaladi. Mujtahidlar tomonidan ushbu so'rovlarga berilgan javoblar fatvo deb yuritiladi va bu tushuncha turli fiqhiy savollar bo'yicha yirik musulmon faqihlarining qat'iy fikrlarini ifodalaydi.

Fatvo "فَتْوَى" so'zi (فتي) o'zagidan kelib chiqqan bo'lib (ko'pligi فَتَاوٍ yoki فَتَاوَى) (فُنْيَى) shaklida ham qo'llaniladi. Lug'atda "bir narsani ochiq qilmoq, biror savolga javob bermoq, biror masaladagi jumboqni yechmoq, izohlamoq" ma'nolarini bildiradi. Fatvo so'zining istilohiy ma'nosi islom ilmlarining turli sohalarida turlicha tariflanadi. Fatvo – shar'iy so'ralgan savolga javob berish ma'nosida ishlatiladi¹.

Fatvo manbalari ulamolar nazdida uch qismga bo'linadi:

1) Shari'y fatvo – Rasululloh sollallohu alayhi vassalamning davrida paydo bo'lgan yoki so'ralgan savolga Shore'ning Qur'oni karim yoki Nabiy alayhissalomning hadislarini orqali javob berish².

Bu qismga Qur'oni karimdan misollar mavjud:

يَسْأَلُونَكَ عَنِ الْأَنْفَالِ قُلِ الْأَنْفَالُ لِلَّهِ وَالرَّسُولِ فَاتَّقُوا اللَّهَ وَأَصْلِحُوا ذَاتَ بَيْنِكُمْ وَأَطِيعُوا اللَّهَ وَرَسُولَهُ إِنْ كُنْتُمْ مُؤْمِنِينَ

¹ Muhammad Taqiy Usmoniy. Usulul-ifto va adabuhu. – Damashq: Dorul-qalam. 2018. – B. 10.

² Muhammad Taqiy Usmoniy. Usulul-ifto va adabuhu. – Damashq: Dorul-qalam. 2018. – B. 11.

Sendan o'ljalar haqida so'rarlar. Sen: "O'ljalar Alloh va Rasulinikidir. Bas, Allohga taqvo qilinglar va o'z oralaringizni isloh etinglar. Agar mo'min bo'lsangiz, Allohga va Uning Rasuliga itoat qilinglar", – deb ayt³. (Anfol surasi. 1-oyat).

Sunnati nabaviydan misol:

عن ابن عباس رضي الله عنهما، أن امرأة من جهينة، جاءت إلى النبي صلى الله عليه وسلم، فقالت: إن أمي نذرت أن تحج فلم تحج حتى ماتت، أفأحج عنها؟ قال: «نعم حجي عنها، رأيت لو كان على أمك دين أكنت قاضية؟ أقضوا الله فالله أحق بالوفاء» رواه البخاري⁴

Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Juhaynalik bir ayol Nabiy (s.a.v)ning huzurlariga kelib "Mening onam haj qilaman deb nazr qilib, haj qilishdan oldin vafot etdi. Uning nomidan haj qilaymi?," deb so'radi. Shunda U zot: "ha, uning nomidan haj qil. Agar uning zimmasida qarz bo'lsa ado qilarmiding, Allohga haqlarni ado qilinglar, Alloh vafo qilishga haqliroq", deb javob berdi. Bu turdagi fatvo vahiyning kesilishi bilan to'xtagan.

2) Fiqhiy fatvo – maxsus hodisa borasidagi savolning javobi bo'lmagan yoki muayyan juzga aloqador bo'lmagan umumiy savolning javobi borasida fuqaholardan biri aniqlagan fatvo hisoblanadi. Bu qismda faqih u borasida so'ralmagan masalar borasida tasavvur qilib, masalarni hukmni shar'iy dalillardan istinbot qiladi, kitob, risola, umumiy savolning javobi shaklida, yoki faraziy savol javobi shaklida bayon qiladi. Misol uchun: muayyan voqeaga hukmni bog'lamaidan, xotiniga seni bo'shatdim yoki qo'ydim deb aytgan kishining hukmi qanday bo'ladi, tarzida keltiradi⁵.

3) Juz'iy fatvo – fiqhning umumiy qoidalarini ma'lum bir juz'iy masalaga qolib qilib, muayyan voqea haqida so'ralgan savolning javobi hisoblanadi. Misol uchun: o'zidan ota-ona, xotin, o'gil va qiz qoldirib, merosi qanday taqsim qilinishi borasida muayyan kishi haqida so'ralayotgan savolga berilgan javob⁶.

Fatvolar islom huquqi bilan yondosh holatda tadrijiy rivojlanib kelgan.

Shar'iy fatvolar vahiyning kelishi bilan to'xtagan so'ngra malum hukmi no'malum bo'lgan masalaga ijtirod orqali yechim topilgan. Ilk muftiy Rasululloh a.s hisoblanib, tiriklik davrlarida qolgan sahobalarda mustaqil ijtirod qilish imkoni bo'lmagan. Nabiy (a.s)ning jamiyatda davlat rahbari, qozilik, imomat, shorelik, muallimlik, rasullik kabi qator vazifalari bo'lgan. Shu jumladan fatvo berish masalalarning yechimini taqdim etish ham bevosita u zotning asosiy vazifalaridan edi. Islomning ilk davrida fatvolarning asosiy manbasi vahiy bilan nozil bo'lgan. Rasulullohdan biror kimsa savol so'rab kelsa vahiy kelguncha kutardilar so'ngra javob berardilar. Agarda oyat nozil bo'lmasa o'zlari masalani yechib berardilar. Ilk fatvolar ham shu sababli hadislar ichida uchraydi. Rasululloh davrlarida hech kim fatvo berishga kirishmagan. Nabiy (a.s) o'zlari sahobalar ijtirod qilish va hukmlarni chiqarib olishda tajribalarga ega bo'lishlari uchun ba'zi sahobalarni fatvo berish yoki hukm qilishga undar edilar. U zotdan uzoqda bo'lgan sahobalar biror masalaga duch kelsa ijtirod qilishiga ruxsat bor edi va ushbu sahoba qaytishi bilan qilgan ijtirodining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini Nabiy (a.s)dan so'rab bilib olgan. Bu jarayonda sahobalar fatvo berish odobi va uslublarini ham ta'lim olganlar.

³ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur'oni Karim va uning ma'nolar tarjimasi. – Toshkent: Hilol nashr. 2022. – B. 177.

⁴ Imom Buxoriy. Sahihul Buxoriy. – Bayrut: Muassatur-risola nashirun. 2021. – B. 554.

⁵ Muhammad Taqiy Usmoniy. Usulul-ifto va adabuhu. – Damashq: Dorul-qalam. 2018. – B. 12.

⁶ Muhammad Taqiy Usmoniy. Usulul-ifto va adabuhu. – Damashq: Dorul-qalam. 2018. – B. 12-13.

Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhu rivoyat qilgan hadisda shunday rivoyat qilingan: Ikki kishi Rasululloh (s.a.v) huzurlariga tortishib keldilar. U zot Amr (r.a)ga: “Ikkisini o’rtasida hukm qil deganida”, Amr roziyallohu anhu: “Siz bizni oramizda bo’la turib qanday hukm qilaman Yo Rasululloh” deb javob berdi. Shunda U zot: “Tog’ri, agar sen to’g’ri hukm qilsang o’nta ajrga ega bo’lasan. Agar harakat qilsangda xato qilsang, unda senga bitta ajr bor” – dedilar⁷.

Fatvo ilmining shakllanishi saodat asri va undan keyingi tobeinlar davri bilan uzviy bog’liqdir. Bu yo’lni keyinchalik sahobalar davom ettirishga qattiq bel bog’ladilar. Mazkur davrda paydo bo’lgan turli muammo va savollarga barcha sahobiyalar ham javob berishga qodir bo’lmaganlar. Ular orasidan Abu Bakr, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, Abdulloh ibn Mas’ud, Zayd ibn Sobit, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Umar va Oisha (r.a)lar fatvo borasida eng ko’p murojaat qilingan sahobalar sanaladi. O’sha davrda sahobalardan 140 nafari fatvo berish darajasiga yetgan edilar. Aynan shu davrdan mazhablarning ham shakllanish davri boshlandi. Biror masalada hukm bo’sa bu aynan qaysi sahobaning so’zi ekaniga e’tibor qaratilar va shu sahobaning mazhabi deya aniq ko’rsatilardi. Sahobalar Rasulullohdan shaxsan so’rash imkonlari bo’lmasa biladigan sahobalardan so’rab masalarning javoblarini izlar edilar. Masalan Ammor ibn Yosir tayammum bo’yicha, Zayd ibn Sobit faroiz bo’yicha qolgan sahobalardan olimroq edilar. Ushu sahobalar o’zlari mohir bo’lgan sohada savollarga javob berganlar. Bundan tashqari Rasululloh islom dinini tarqatish uchun turli hududlarga vakillarini yuborganlar va ularga masalalar yuzasidan fatvo berishga ijozat berganlar. Har bir sahoba Qur’on va sunnatga, manfaat va sababga tayanib fatvo bergan. Shariy dalillar va insonlarning manfaati zid kelgan holatda shariy dalillar so’zsiz olingan. Sahobalarning fatvolari mo’tadil va noqislikdan holi bo’lgan deyish mumkin.

Sahobalarning bergan fatvolari Abbosiy xalifalar davridan boshlab yozib jamlandi xususan Xalifa Ma’mun davrida Ibn Abbosning bergan fatvolari 20 jildli kitob sifatida jamlandi⁸. Bugungi kunda ham ko’plab fatvo bergan sahobalarning fatvolari bir kitobga jamlangan bo’lib Muhammad Rovasning “Ta’liyf fihi Abi Bakrin as-Siddiq” asarini misol keltirish mumkin⁹.

Tobeinlar davriga kelib musulmon diyorlari kengaya boshladi. Natijada turli xil yangi masalalar paydo bo’la boshladi. Tobeinlar fatvo berish borasida Qur’on, sunnat va sahobalar so’zlariga hamda o’z ijtihodlariga tayanib masalalarga yechim topishga bor g’ayratlarini sarfladilar. Tobeinlar davriga kelib mujtahid faqihlar ikki yo’nalishda faoliyat olib borishdi. Birinchi toifa vakillari asosan hukmiy oyat va hadislarni jamla, nassda keltirilmagan masalar bo’yicha ijtihodga, ra’y va qiyosdan foydalanishga kirishmas edilar. Ikkinchi toifa vakillari: Nas bilan cheklanib qolmay biror masala yuzasidan chuqur ijtihod qilar va yakunda yangi masala yuzasida fatvo berar edilar. Rasululloh sahobalaridan dars olgan tobeinlar ham fatvo borasida turli xil makon va darajalarga tabaqalana boshladi. Har bir joyda alohida katta tobeinlar fatvoga xoslandilar. Shulardan:

⁷ Muhammad ibn Abdulloh al-Hokim. Mustadraki Hokim. – Bayrut: Dorur-rasolatil-alamiyya. 2020. J. 4. – B. 94.

⁸ Muhammad Taqiy Usmoniy. Usulul-ifto va adabuhu. – Damashq: Dorul-qalam. 2018. – B. 35

⁹ Muhammad Taqiy Usmoniy. Usulul-ifto va adabuhu. – Damashq: Dorul-qalam. 2018. – B. 37

Madina faqihlari: Said ibn Musayyib, Abu Salama ibn Abdurrahmon ibn Avf, Urva ibn Zubayr, Ubaydulloh, Qosim ibn Muhammad, Sulaymon ibn Yasor va Xorija ibn Zayd. Bu zotlar yetti fuqao deb nomlangan¹⁰.

Makka faqihlari: Ato ibn Abu Ravoh, Aliy ibn Abu Tolha, Mujohid ibn Jabr, Amr ibn Diynor, Abdulloh ibn Ubaydulloh ibn Abu Mulayka, Abdulmalik ibn Jurayj va boshqa tobeinlar.

Kufa faqihlari: Ibrohimi Naxaiy, Omir ibn Sharohbil ash-Sha'biy, Alqama, Said ibn Jubayr, Masruq ibn Ajda', Ubayda ibn Amr as-Salmoniy, Qozi Shuryh ibn Horis, Ibrohimi ibn Yazid an-Naxaiy va boshqa ko'plab tobeinlar shular jumlasidan.

Basra faqihlari: Hasan Basriy, Muhammad ibn Sirin, Abul-Oliya, Jobir ibn Zayd va Qotada ibn Di'ama as-Sadusiyy.

Shom faqihlari: Abu Idris Xovlaniy, Makhul ibn Abu Muslim, Roja ibn Hayva al-Kindiy, Umar ibn Abdulaziz, Shurohbil ibn Simt, Qobiysa ibn Zuayb.

Misr faqihlari: Abdulloh ibn Amr shogirdlari: Abul-Xoyr Marsad ibn Abdulloh al-Mazaniy, Yazid ibn Abu Habib.

Yaman faqihlari: Tovus ibn Kayson, Vahb ibn Munabbih, Yahyo ibn Abu Kasir.

Mujtahid tobeinlarning fatvolarining aksar qismi musnadlar, sunanlar va muvattolarda zikr qilingan¹¹.

Abul Hasanot Muhammad Abdulhay Laknaviy "Umdat ar-rivoya fiy haliy sharhil Viqoya" kitobining muqaddimasida aytadi: Kifaviy o'zining Hanafiylar tabaqotlari to'g'risidagi "Kataibi a'lamil axyari min fuqahai mazhabin No'manil Muxtori" – deb atalgan kitobida bunday deb yozadi: Bilingki, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) o'ziga Alloh taolo tarifidan nozil qilingan shariatni bizga yetkazdilar va dinni ta'lim berdilar. Shariat ko'rsatmalariga muvofiq hukm qilib had (jinoyatga qarshi qonun-qoida)larni o'rnatdilar. Qozilik qilib hukm qildilar. Shariat qonunlarini aniqlab berdilar. Hukmlar chiqadigan muhkam oyatlardan far'larni chiqardilar. Allohning dinini o'rnatishda qattiq bor kuch-g'ayratini sarflab va oxiriga yetkazdilar. Uni ummatlariga vojib qildilar. So'ngra xulafoi roshidinlar va sahobalarning barchasi dinni o'rnatishda, shariat qonunlarini ijro etishda, ahli tavhidlarning qonun-qoidalarini ta'yin qilishda, Allohning dushmanlari bo'lgan bid'atchilarning hiylalarini puchga chiqarishda bor kuchlarini sarfladilar. Ular Allohning amrini oshkor qilgan uning nusratiga yopishgan hollarida Islomni mushkil vaziyatdan chiqarib, oyoqqa turg'azdilar. Dinni o'z suyanadigan joyiga suyardilar.

Xulosa sifatida, fatvolar islom huquqi bilan uzviy bog'liq tarzda rivojlanib bordi. Fatvo va fatvo to'plamlari rivojiga musulmonlar turmush tarzida yuzaga kelgan avval uchramagan masalalarning yechimini topishga ijthod orqali kirishish, insonlarga fiqhiy masalalarda manfaat va maslaxatni ko'zlash katta ta'sirini o'tkazdi. Rasululloh vafotlariga qadar muftiylik, qozilik, faqihlik imomlik kabi bir qator vazifalar aynan u zotda jamlandi. Ayrim sahobalarga Rasululloh bo'lmagan holatlarda fatvo berish, savollarga javob berish kabi mas'uliyatli vazifaga ruxsat berilishi ularda muftiylik, qozilik va mujtahidlik malaka va konikmasini shakllantirdi. Sahobalar ijthodlari natijasini to'g'ri yoki aksi ekanini doim nazoratda bo'lishini ta'minladilar. Abbosiylar davriga kelib fatvolarni aynan to'plam shakliga keltirish bosqichi boshlandi. Rasululloh davrlarida bergan fatvolari hadislar tarkibida, sahobalarning fatvolari

¹⁰ Muhammad Taqiy Usmoniyy. Usulul-ifto va adabuhu. – Damashq: Dorul-qalam. 2018. – B. 54-56.

¹¹ Muhammad Taqiy Usmoniyy. Usulul-ifto va adabuhu. – Damashq: Dorul-qalam. 2018. – B. 59.

mazhablarning asos manbalari sifatida, tobeinlar favolari keyinchalik fatvo to'plamlari shaklida jamlandi va hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur'oni Karim va uning ma'nolar tarjimasi. – Toshkent: Hilol nashr. 2022. – 632 b.
2. Muhammad Taqiy Usmoniy. Usulul-ifto va adabuhu. – Damashq: Dorul-qalam. 2018. – 348 b.
3. Ramazon Butiy. Fiqh ilmi tarixi va rivojlanish bosqichlari. –Toshkent: Hilol-nashr. 2023. – 360 b.
4. Muhammad ibn Abdulloh al-Hokim. Mustadraki Hokim. – Bayrut: Dorur-rasolatil-alamiyya. 2020. J. 4. – B. 589.

